O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UDK:658:6.01(575.1)

SALIYEVA ZUHRA DAVRONBEK QIZI

ILG‘OR XORIJIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISH YO‘LLARI

70411601–Korporativ boshqaruv

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: PhD., dotsent Gofurov D. B.

Toshkent-2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Innovatsion menejment” kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar **i.f.f.d. (PhD), dotsent D.Gofurov**

Kafedra mudiri **i.f.f.d., prof. B.Urinov**

Kechki ta’lim va magistratura

fakulteti dekani **i.f.d., prof. J.Karimqulov**

Men,

_____

(F.I.Sh.)

ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko‘chirmachilik holati yo‘qligiga javob beraman. Ko‘chirmachilikka yo‘l qo‘yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va “qoniqarsiz” baho qo‘yilishidan xabardorman.

_____ _____ _____ _____

(talabaning imzosi) *(kun)* *(oy)* *(yil)*

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI DASTLABKI HIMOYASI
1 - SONLI BAYONNOMASI

2025 yil "16" may

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti 2-kurs _____
"Korporativ boshqaruv"
mutaxasisligi MKB-01-guruh talabasi Saliyeva Zuhra Dadaxonbek qizi ning
"Ilg'or xorijiy texnologiyalar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida ESG tamoyillarini joriy etish yo'llari"
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi natijalariga ko'ra quyidagi kamchiliklar qayd etildi:

1. Dissertatsiya ishida orfografik xatolar mavjud.
2. Jadval va rasmlar to'g'ri rasmiylashtirilmagan.
3. Iqtibos keltirishda ayrim kamchiliklar mavjud.

Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan xulosa (KIMKda himoyaga **tavsiya etiladi/tavsiya etilmaydi)** Tavsiya etiladi.

Komissiya raisi: B.N. Ulenov – kafedra mudiri

Komissiya a'zolari: A.R. Ismoilov – dotsent
M.R. Xidirova – dotsent
D.Sh. Fayziyeva – dotsent

N.G'ofarova kotib

Izoh: Dastlabki himoyaga kirishda talabaning magistrlik dissertatsiyasi, plagiatga tekshirilganligi, ilmiy rahbar xulosasi, ichki taqrizchilarning taqrizlari, kamida 2 ta ilmiy maqola va tezis nusxalari bo'lishi talab etiladi.

ANNOTATSIYA

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida ilg‘or xorijiy texnologiyalar asosida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ESG (Environmental, Social, Governance – Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) tamoyillarini kompleks ravishda joriy etishning nazariy asoslari, uslubiy yondashuvlari va amaliy imkoniyatlari chuqur tahlil etilgan. Dissertatsiyada global tajriba, xususan AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlaridagi ilg‘or korporatsiyalarning ESG strategiyalarini yaratish, monitoring qilish va integratsiyalash bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarni joriy etishdagi muvaffaqiyatli amaliyotlari tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror rivojlanishini ta’minlashda ESG tamoyillarining roliga alohida e’tibor qaratilib, ayniqsa, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, “green IT” (yashil axborot texnologiyalari), blokcheyn va katta hajmdagi ma’lumotlar (big data) asosida ishlovchi tahliliy tizimlarning ESG jarayonlariga integratsiyasi atroflicha ko‘rib chiqilgan. Dissertatsiyada zamonaviy texnologiyalar yordamida ekologik xavflarni baholash, ijtimoiy ta’sir monitoringi, shaffof korporativ boshqaruvni avtomatlashtirish va manfaatdor tomonlar bilan interaktiv hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Ilmiy ishda O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida ESG tamoyillarini joriy etishdagi mavjud holat, to‘siqlar va imkoniyatlar chuqur tahlil qilinib, ilg‘or xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, ESG ko‘rsatkichlarini raqamli platformalar orqali avtomatlashtirilgan monitoring qilish mexanizmlarini yaratish, ESG bo‘yicha kompaniya strategiyasini shakllantirishda sun’iy intellektdan foydalanish va ESG axborotlarini investorlar uchun ochiqligini ta’minlovchi texnologik vositalar haqida tavsiyalar berilgan.

Mazkur dissertatsiya natijalari asosida aksiyadorlik jamiyatlarida barqaror, mas’uliyatli va raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlarini shakllantirish imkonini beruvchi ilmiy-amaliy asoslar yaratildi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston

korxonalarining xalqaro bozor talablariga moslashuvi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Tayanch iboralar: ESG tamoyillari (Environmental, Social, Governance), Barqaror rivojlanish , Ilg‘or xorijiy tajriba, Raqamli transformatsiya, Sun’iy intellekt (AI), Korporativ boshqaruv shaffofligi, ESG indikatorlari, ESG indikatorlari, Ijtimoiy mas’uliyat, Milliy va xalqaro standartlar integratsiyasi.

SUMMARY

This master's dissertation explores in depth the theoretical foundations, methodological approaches, and practical implementation of ESG (Environmental, Social, Governance) principles in joint-stock companies through the application of advanced foreign technologies. The research focuses on analyzing global best practices - particularly those of the United States, the European Union, and Asian countrie - in developing, integrating, and monitoring ESG strategies, with a specific emphasis on adapting such experiences to the socio-economic context of Uzbekistan.

Special attention is given to the role of ESG principles in ensuring the long-term, sustainable development of joint-stock companies. The study thoroughly examines the integration of modern digital technologies - such as artificial intelligence (AI), green IT, blockchain systems, and big data analytics - into ESG processes. It highlights innovative approaches to environmental risk assessment, social impact monitoring, automated corporate governance, and the establishment of transparent, interactive cooperation with stakeholders.

The dissertate ion also analyzes the current situation, challenges, and prospects of ESG implementation in Uzbekistan's joint-stock companies. Based on international experience, it proposes concrete, localized recommendations for the Uzbek context. These include: the creation of automated platforms for monitoring ESG indicators; the application of AI in ESG strategy development; and the use of digital tools to enhance transparency and accountability of ESG-related data for investors and other stakeholders.

The outcomes of this research offer a scientific and practical basis for establishing sustainable, responsible, and digitally integrated governance models in joint-stock companies. Furthermore, the findings are expected to support the alignment of Uzbek enterprises with international standards and improve their global investment appeal.

Keywords / Key Terms : ESG Principles (Environmental, Social, Governance), Sustainable Development,Advanced Foreign Experience, Digital Transformation, Artificial Intelligence (AI) ,Transparency in Corporate Governance, ESG Indicators,Social Responsibility,Integration of National and International Standards

MUNDARIJA:

Mundarija		
Kirish		3
I BOB.	**ESG (EKOLOGIK, IJTIMOIY VA KORPORATIV BOSHQARUV) TAMOYILLARI VA ULARNI AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA JORIY ETISHNING NAZARIY-USLUBIYASOSLARI.....**	9
1.1.	ESG tamoyillarining mazmun-mohiyati va uning zamonaviy iqtisodiyotdagi zarurati	9
1.2.	ESG tamoyillarini ilg'or xorijiy texnologiyalar asosida amalga oshirish va kompaniya faoliyatiga joriy etish xususiyatlari.....	19
1.3.	O'zbekiston korxonalarida ESG tamoyillarini joriy etishning huquqiy asoslari	28
	1 – bob bo'yicha xulosalar.....	38
II BOB.	**O'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISH AMALIYOTI TAHLILI**	39
2.1.	"ALSKOM SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ da ESG tamoyillarini joriy etishning afzalliklari.....	39
2.2.	"ALSKOM SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ da ESG tamoyillarini joriy etish va amalga oshirish amaliyoti tahlili	50
2.3.	"ALSKOM SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ da ESG tamoyillarini amalga oshirishning kompaniya moliyaviy-iqtisodiy holatiga ta'siri tahlili.....	56
	2 – bob bo'yicha xulosalar.....	63
III BOB.	**ILG'OR XORIJIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISH YO'LLARI .....**	65
3.1.	ESG bo'yicha xorijiy ilg'or tajribalarni aksiyadorlik jamiyatlariga qo'llashda jahon tajribalaridan foydalanish yo'llari.....	65
3.2.	ESGning komponentlari bo'yicha texnologik yechimlar.....	70
	3 – bob bo'yicha xulosalar.....	83
	XULOSA.....	85
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI	88
	ILOVALAR.....	89

KIRISH

Magistirlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi: So‘nggi o‘n yilliklarda korporativ javobgarlik dunyodagi ko‘plab kompaniyalar uchun strategik rejalashtirishning ajralmas qismiga aylandi. Natijada ESG tushunchasi paydo bo‘ldi. Zamonaviy shaklda ESG tamoyillari ilk bor 2004 yilda BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan tomonidan kiritilgan. U jahondagi yirik kompaniyalar boshqaruvchilariga ushbu tamoyillarni o‘z strategiyalariga, birinchi navbatda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishni taklif qildi. Shuni ta’kidlash kerakki, aksariyat rivojlangan davlatlarda yirik kompaniyalar bu tamoyilga allaqachon o‘tib bo‘lgan va ularning soni ortib bormoqda. Masalan, AQShda ESG-reytingga ega bo‘lgan kompaniyalar soni 2000 yilda 20tani tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib ularning soni deyarli 800ga etdi. O‘rtacha ESG reytingi 20 yil ichida ikki baravar ko‘paydi, bu ma’lumotlar hajmi, sifati oshishi va ochiqligi bilan bog‘liq. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari ESG tamoyillarini samarali amalga oshirishdan manfaatdor, chunki bu nafaqat ularning jamoatchilik imidjini yaxshilashi, balki barqaror o‘sishi va uzoq muddatli rentabelligini ham ta’minlashi mumkin. Biroq, ESG strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kompaniyalar o‘zlarining ESG tashabbuslarini samarali boshqarishda yordam beradigan Ilg‘or texnologiyalarga muhtoj.

O‘zgaruvchan jahon iqtisodiyotida ESG (atrof-muhit, ijtimoiy,korporativ boshqaruv) tushunchasi korporativ dunyo uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu konsepsiya korporativ qarorlar qabul qilish jarayonida atrof-muhit, ijtimoiy mas’uliyat va boshqaruv omillarini hisobga olishni anglatadi. Bunday amaliyotlarni amalga oshirish barqaror rivojlanish va o‘z aksiyalarining qiymatini oshirishga intilayotgan aksiyadorlik jamiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) masalalari butun dunyo bo’ylab korxonalar uchun muhim ahamiyatga ega bo’lib, mustahkam amalga oshirish strategiyalariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ landshaftning asosiy ishtirokchilari sifatida ESG tamoyillarini o'z faoliyatiga integratsiya qilish muhimligini tobora ko'proq tan olishmoqda. Ushbu